

## Farg‘ona viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026- yil yanvar-fevral oyi uchun

- I. Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Farg‘ona viloyati sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

### I. Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026- yilning 1-mart holatiga ko‘ra viloyatda 6 245 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1061 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 18 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 771 tasi (12%) kiyim ishlab chiqarishga, 540 tasi ( 9 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga to‘g‘ri kelmoqda.

Korxonalar soni  
1- mart holatiga ko‘ra



## II. Farg‘ona viloyati sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2026-yilning yanvar-fevral oyida viloyat korxonalarini tomonidan 7 729,5 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2025-yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,8 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so‘m	Fizik hajm indeksi, % da
<b>Farg‘ona viloyati</b>	<b>7 729,5</b>	<b>107,8</b>
<i>shahar tumanlar:</i>		
Farg‘ona shahri	1 151,0	107,2
Qo‘qon shahri	1 301,2	109,2
Quvasoy shahri	261,2	108,1
Marg‘ilon shahri	239,4	108,3
Oltiariq tumani	184,4	107,1
Qo‘shitepa tumani	452,7	106,4
Bag‘dod tumani	168,3	109,2
Buvayda tumani	140,8	113,6
Beshariq tumani	273,1	107,0
Quva tumani	100,1	110,5
Uchko‘prik tumani	778,2	110,6
Rishton tumani	72,4	116,2
So‘x tumani	18,1	113,6
Toshloq tumani	448,3	110,7
O‘zbekiston tumani	207,6	112,8
Farg‘ona tumani	312,6	110,9
Dang‘ara tumani	206,6	109,2
Furqat tumani	97,2	104,8
Yozyovon tumani	64,8	110,2

### Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

### Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Farg‘ona shahrida (3 469,6 ming so‘m), Qo‘qon shahrida (4 109,9 ming so‘m), Quvasoy shahrida (2 512,1 ming so‘m), Uchko‘prik tumanida (3 118,7 ming so‘m), o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (839,4 ming so‘m) sezilarli darajada yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, Yozyovon tumanida (108,1 %), Farg'ona tumanida (108,8 %), Qo'qon shahrida (107,0 %), Beshariq tumanida (105,1 %), Marg'ilon shahrida (106,6 %) So'x tumanida (110,5 %), Rishton tumanida (114,1 %), qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


**Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi**  
yanvar oyida



**Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari**

2026- yilning yanvar-fevral oyida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 7075,3 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (91,5%) ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 22,2 mlrd so'm (0,3%), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 537,4 mlrd so'm (7,0 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 94,5 mlrd so'm (1,2 %) ni tashkil etdi.

**Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi**  
2026- yilning yanvar fevral oyida



### III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026- yilning yanvar-fevral oyida viloyatda 28,5 ming tonna avtomobil benzini (2025- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan 112,2 % ga o'sdi) 203,4 ming litr aroq mahsulotlari (97,8 % ga kamaydi) hamda 71 546,8 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (148,3% ga o'sdi) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-fevral	2025- yil yanvar-fevral	2026- yil yanvar-fevral
Paxta tolasi, tonna	18 098,6	20 123,4	17 725,5
Paxta urug'lari, tonna	28 876,2	30 387,5	27 639,9
Avtomobil benzini, ming t	58,7	25,4	28,5
Dizel yoqilg'isi, ming t	67,3	35,3	61,3
Paxta linti, tonna	1 773,3	2 091,7	1 068,9
Neft bitumi, ming t	5,2	3,7	1,3
Portlandsement, ming t	64 432,0	27 528,0	50 587,0
Sement klinkrlari, ming t	24 000,0	17 815,0	0,0

*\*2024-2026- yillarning yanvar-fevral oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,3 % (2025- yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 107,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,8 % (2025 yilning yanvar-fevral oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 92,7 %) ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2025-yilning yanvar-fevral oyida 0,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 13,2 % (13,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 23,6 % (27,3 %), quyi texnologiyali 62,4 % (58,4 %) ni tashkil etgan.



### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-fevral oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 53,0 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 72,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-fevral	2025- yil yanvar-fevral	2026- yil yanvar-fevral
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln kvts	59,3	61,7	33,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	273,6	289,8	193,9

### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 172,0 % ni chiqindi suvlarni olib tashlash, tashish va ularni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar 143,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-fevral	2025- yil yanvar-fevral	2026- yil yanvar-fevral
Tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar mlrd so'm	31,6	34,1	58,6
Chiqindi suvlarni olib tashlash, tashish va ularni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar-mlrd so'm	32	5,3	7,6

\*2024-2026- yillarning yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

#### IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 3376,7 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 52,1 % ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-fevral oyida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 44,5 % ni tashkil etgan.



## V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat bu** – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

### Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

**B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**C** - Ishlab chiqarish sanoati

**D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

### Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

### Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika  
statistikasi bo'limi

### Ijrochi:

B. Xamdamov  
73 241-96-28 (4010)

### Manzil:

